

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**DAVLATBOYEV MUZAFFAR ODILJON O'G'LI**

**XINAZOLIN-4-ON VA UNING 2(H,METIL)-3-ALKIL ALMASHGAN  
HOSILALARI ASOSIDAGI ORGANIK TUZLAR VA d-METALLARI  
KOMPLEKSLARI SINTEZI, RENTGENTSTRUKTURAVIY HAMDA  
TERMOGRAVIMETRIK TAHLILI**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz - 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Davlatboyev Muzaffar Odiljon o‘g‘li**

Xinazolin-4-on va uning 2(H,metil)-3-alkil almashgan hosilalari asosidagi organik tuzlar va d-metallari komplekslari sintezi, rentgentstrukturaviy hamda termogravimetrik tahlili.....3

**Давлатбоев Музаффар Одилжон ўғли**

Синтез органических солей и комплексов d-металлов на основе хиназолин-4-она и его 2 (H,метил) -3-алкилзамещенных производных, рентгеноструктурный и термогравиметрический анализ.....21

**Davlatboyev Muzaffar**

Synthesis, x-ray and thermogravimetric analysis of organic salts and d-metals complexes based on quinazolin-4-one and its 2(H,methyl)-3-alkyl-substituted derivatives.. .....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....45

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**DAVLATBOYEV MUZAFFAR ODILJON O'G'LI**

**XINAZOLIN-4-ON VA UNING 2(H,METIL)-3-ALKIL ALMASHGAN  
HOSILALARI ASOSIDAGI ORGANIK TUZLAR VA d-METALLARI  
KOMPLEKSLARI SINTEZI, RENTGENTSTRUKTURAVIY HAMDA  
TERMOGRAVIMETRIK TAHLILI**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Termiz - 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/K966 raqam bilan ro'yxatga olingan**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tersu.uz](http://www.tersu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Sattarov To'liqinjon Abdusattor o'g'li**  
texnika fanlar nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Muqumova Gulvar Jumayevna**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Razzoqova Surayyo Razzoqovna**  
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Umumiy va noorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 raqamli ilmiy kengashning "25" 04 2026-yil soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№574 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "10" 04 kuni tarqatildi.  
(2026-yil "9" 04 dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).



**I.A.Umbarov**  
Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**Sh.A.Kasimov**  
Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, k.f.d., professor

**G.J.Muqumova**  
Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., dotsent

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati:** Bugungi kunda dunyoda zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika sohasida yangi dori vositalarini sintezi insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tabiiy dorivor moddalar katta ahamiyatga ega bo'lib, ko'p hollarda ularni ajratib olish usullari qiyin, olingan birikmalarning samaradorligi past va resurslari bir muncha cheklangan hamda sintetik dorilar farmatsevtika sanoatida muhim o'rin egallaydi. Shunga ko'ra, ko'p funksiyali dori vositalarini sintez qilish, ayniqsa, maqsadli biologik faollikka ega, kam toksik va yuqori samarador preparatlarni yaratish, ularning sog'lom to'qimalarga zarar yetkazish xavfini hamda bemor organizmida nojo'ya ta'sirlar ehtimolini kamaytirishda biometallarning fiziologik faol ligandlar bilan sintez qilingan kompleks birikmalari asosida samarali dorivor preparatlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda so'nggi yillarda farmakologiyada biometallarning xinazolin va uning hosilalari bilan sintez qilingan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ba'zi d-metall ionlarining fiziologik faol ligandlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining biologik jarayonlardagi rolini aniqlash, ko'plab fermentlar, oqsillar hamda hujayra ichidagi reaksiyalarda ishtirok etish mexanizmini tadqiq qilish, keng spektrli biologik faollikka ega xinazolin hosilalarining biometallar ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining hujayra membranalaridan o'tish qobiliyatini aniqlash, bunday komplekslar biomolekulalar bilan o'zaro ta'sirlashishi hamda fermentativ jarayonlarni modulyatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda, kimyo sanoatining yangi turdagi materiallarini ishlab chiqarish yo'nalishida qator natijalarga erishilmoqda. Shu jumladan mahalliy bozorni import o'rnini bosuvchi reagentlar bilan ta'minlashda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan va "mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan kimyo sanoatini rivojlantirishda biologik faolligi yuqori bo'lgan kompleks birikmalar sintez qilish va tadqiq etishga keng e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida, 2018 yil 25 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3983-son, 2019 yil 3 apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4265-son, 2021 yil

---

<sup>1</sup>Prezident tomonidan 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

13 fevraldagi “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4992-son Qarori hamda mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari faoliyatga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII-“Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyoning ko‘plab ilmiy laboratoriyalarida xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalarni o‘rganishgan. Jumladan, Xitoyning Gannan Normal universitetining, Chai. L. Q., Zhang. K. Y., Tang. L. J., Zhang. J. Y., Zhang. H. S. Mono kabi olimlari xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari asosida metallar bilan kompleks birikmalar sintez qilish bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Shuningdek xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining monodentatli, bidentatli, bisiklik va trisiklik kompleks birikmalari sintez qilingan va ularning kristall tuzilishi rentgen tuzilish tahlil (RTT) usulida aniqlangan. Kembridj kristallografik ma‘lumotlar bazasi (Cambridge Crystallographic Data Center,CCDC-2026) ma‘lumotlarga ko‘ra xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining 120 dan ortiq monokristallari sintez qilingan va ularning tuzilishi aniqlangan.

O‘zbekistonda mazkur ilmiy yo‘nalishda kompleks birikmalarni sintez qilish, ularning tuzilish xususiyatlari, xossalari hamda amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha akademiklar N.A. Parpiyev, B.T. Ibragimov va bir qator yetuk professorlar X.T.Sharipov, X.X.Xakimov, O.F.Xodjayev, A.A.Shabilolov, T.A.Azizov, X.X.Turayev, B.B.Umarov, Sh.A.Kadirova, Sh.Sh.Daminova, Z.Ch.Kadirova, J.M.Ashurov, A.B.Ibragimov va Sh.A.Kasimovlar tomonidan tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari asosida sintez qilingan kompleks birikmalarning sintezi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining d-metallar asosida kompleks birikmalari yetarlicha sintezi qilinmagan hamda ularning tuzilishi va xossalari o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqoti ishi Namangan davlat universiteti hamda O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarning № 4/1255-2195 sonli “Qishloq xo‘jaligi va tibbiyot ehtiyojlari uchun biologik faol vositalarni yaratishda tabiiy va sintetik organik birikmalardan maqsadli foydalanishning ilmiy asoslari” (2023-2024-y.) mavzusidagi bazaviy fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari asosida d-metall kompleks birikmalarini sintez qilish, ularning kristall va molekulyar tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalarni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining Co(II), Cu(II), Mn(II) kationlari bilan aralash ligandli kompleks birikmalarini sintez qilish hamda ularning monokristallarini olish;

sintez qilingan kompleks birikmalarning kristall tuzilishlari, tarkibi va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish; IQ-spektroskopiya, TGA, DTA, RTT;

sintez qilingan kristalldagi molekulararo, nokovalent o‘zaro ta’sirlarni baholash uchun, Hirshfeld sirt tahlilini o‘tkazish;

sintez qilingan kompleks birikmalarning zamburug‘ koloniyalariga qarshi biologik faolligini aniqlash;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida yangi xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari, Co(II), Cu(II), Mn(II) tuzlari, HCl, HNO<sub>3</sub> kislotalarining turli konsentratsiyali eritmada hamda Fusarium, Alternaria, Phytophthora kabi zamburug‘lari olingan;

**Tadqiqotning predmeti** xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining ba’zi d-metallar hamda xlorid va nitrat kislotalari bilan kompleks birikmalari sintezi, kristall va molekulyar tuzilishi, individualligi, fizik-kimyoviy hamda biologik faolligini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xassalarini aniqlashda rentgen tuzilish tahlili, infraqizil spektroskopiya, differensial termogravimetriya (DTA) usullaridan hamda Olex 2, Mercury, PLATON, XP, SHELXS, SHELXL va CrystalExplorer 17.5 dasturlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ilk bor xinazolinning Cu(II), Co(II), Mn(II) metall kationlari bilan 3 ta yangi metallokompleks birikmalari hamda xlorid, nitrat kislotalar bilan 8 ta yangi organik tuzlari sintez qilingan, Kembridj kristallografik ma’lumotlar bazasidan (Cambridge Crystallographic Data Center) tegishli, 2515307, 2503067, 2502790, 2502576, 2391475, 2479539, 2469695, 2349187 depozit raqamlari olingan;

RTT, IQ- spektroskopiya, termogravimetrik analiz (TGA), differensial termik analiz (DTA) tahlil usullari yordamida olingan kompleks birikmalar va organik tuzlarning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilindi, olingan metallokomplekslar tetraedr tuzilishli fazoviy shakllarni namoyon qilishi Mercury, PLATON, SHELXS, SHELXL dasturlari yordamida aniqlangan;

2(3)-alkil almashgan xinazolin hosilalarining Cu(II), Co(II), Mn(II) kationlari asosida olingan kompleks birikmalarining Hirshfeld sirt tahlillari CrystalExplorer 17.5 dasturi yordamida o‘rganilganda, tasirlashuvlarning ko‘proq ulushi H··H va O··H/O··H bog‘lari o‘rtasida bo‘lishi isbotlangan;

Sintez qilingan yangi [HCl·(2,3-DMX)], [HNO<sub>3</sub>·X-4-on] tarkibli organik tuzlarning Fusarium, Alternaria, Phytophthora kabi zamburug‘larga qarshi biologik faollik namoyon qilishi In-vitro usuli yordamida aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Co(II), Cu(II), Mn(II) kationlarning xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarilar asosida yangi kompleks birikmalarini sintez qilindi, maqbul sharoitlari aniqlangan;

yangi olingan kompleks birikmalarning kristall tuzilishlari, tarkibi va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida vodorod bog'lar uzunligi  $\text{Cu(II)} < \text{Co(II)} < \text{Mn(II)}$  qatorda ortishi RTT usuli yordamida aniqlangan;

xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining Cu(II), Co(II), Mn(II) kationlari asosida olingan kompleks birikmalarining Hirshfeld sirt tahlillari CrystalExplorer 17.5 dasturi yordamida o'rganilganda, tasirlashuvlarning ko'proq ulushi H...H va O...H/O...H bog'lari o'rtasida bo'lishi isbotlangan;

[CuCl<sub>4</sub>(X-4-on)<sub>2</sub>], [MnCl<sub>4</sub>·(2,3dM-X-4on)<sub>2</sub>], [CoCl<sub>4</sub>·(2,3M-X-4on)<sub>2</sub>] tarkibli kompleks birikmalarning HOMO va LUMO energiyalari hamda ular orasidagi energiya farqi (ΔE) qiymatlari aniqlanib, komplekslarning kimyoviy barqarorligi va reaktivligi aniqlangan;

sintez qilingan [HCl·(2,3-DMX) va [HNO<sub>3</sub>·X-4-on] tarkibli kompleks birikmalarning Fusarium, Alternaria, Phytophthora zamburug' koloniyalariga qarshi biologik faolligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ba'zi d-metallar ionlarining xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarilar bilan sintez qilingan kompleks birikmalarining tarkibi, molekulyar hamda kristall tuzilishlari RTT, IQ-spektroskopiya, termik tahlil va boshqa fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida isbotlandi, shuningdek, olingan kompleks birikmalar dezinfeksiyalovchi vositalar olish uchun amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi. Olingan xulosalar tajriba natijalari tahlili bilan asoslangan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining Co(II), Cu(II) va Mn(II) metallari xlorid va nitrat kislota bilan hosil qilgan kompleks birikmalarini sintez qilish uchun optimal sharoitlar aniqlandi. Olingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalarini aniqlash natijalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari, jumladan rentgen tuzilish tahlili (RTT), Hirshfeld sirt tahlili, termogravimetrik tahlil (TG) va differensial termogravimetrik tahlil (DTG) tahlil usullari yordamida hisoblanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, [CoCl<sub>4</sub>·(2,3M-X-4on)<sub>2</sub>], [HNO<sub>3</sub>·(3-O,X-4on)] , [HNO<sub>3</sub>·X-4-on], [HCl·(2,3-DMX)], [HNO<sub>3</sub>·(3-N,X-4on)], [HNO<sub>3</sub>·(3-O,X-4on)], [CuCl<sub>4</sub>·(X-4on)<sub>2</sub>], [HNO<sub>3</sub>·(2,3-DMX)] tarkibli kompleks birikmalarning kristallografik ma'lumotlari Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilganligi, o'xshash komplekslarni sintez qilishda hamda ularning tuzilishlarini xarakterlashda taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanish imkonini yaratadi, shuningdek 2(3)-alkil almashgan xinazolinning ba'zi d-metallari bilan sintez qilingan kompleks birikmalarining zamburug' koloniyalariga qarshi fungitsid xususiyatlarini namoyon qilganligi, dezinfeksiyalovchi vositalarga eritma ko'rinishida qo'shilganda ularning ta'sir samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining Co(II), Cu(II) va Mn(II) metallari xlorid va nitrat kislota bilan hosil qilgan kompleks birikmalarini kristall tuzilishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tuzilishi quydagicha [CoCl<sub>4</sub>·(2,3M-X-4on)<sub>2</sub>], [HNO<sub>3</sub>·(3-O,X-4on)] , [HNO<sub>3</sub>·X-4-on], [HCl·(2,3-DMX)], [HNO<sub>3</sub>(3-N,X-4on)], [HNO<sub>3</sub>·(3-O,X-4on)], [CuCl<sub>4</sub>·(X-4on)<sub>2</sub>],

[HNO<sub>3</sub> (2,3-DMX)] tarkibli kompleks birikmalar Kembridj kristallografiya ma'lumotlar bazasi (CCDC) ga kiritilgan (The Cambridge Structural Database, <https://www.ccdc.cam.ac.uk/structures/>; CCDC depozit raqamlari: 2515307, 2503067, 2502790, 2502576, 2391475, 2479539, 2469695, 2349187). Natijada boshqa o'xshash birikmalarning fizik-kimyoviy va geometriya parametrlarini aniqlash uchun ishlatilish imkonini beradi;

xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining d-metallar bilan kompleks birikmasi Tojikistonning "Chemical characterization of the medicinal and endemic plants growing in Tajikistan" ilmiy laboratoriyasida (Grant No: CAM202203) raqamli grant loyihasida foydalanilgan (Xitoy-Tojikiston tabiiy mahsulotlar innovatsion markazining ma'lumotnomasi). Natijada patogen zamburug'larga qarshi yuqori samarali fungitsid xususiyatlarga ega yangi preparatlar sintez qilish imkonini bergan;

sintez qilingan kompleks birikmaning kristall tuzilishidan olingan ma'lumotlaridan O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti Organik sintez va o'simliklar himoyasi bo'limida bajarilgan "Qishloq xo'jaligi va tibbiyot ehtiyojlari uchun biologik faol vositalarni yaratishda tabiiy va sintetik organik birikmalardan maqsadli foydalanishning ilmiy asoslari" mavzusidagi bazaviy fundamental loyihani bajarish jarayonida tanlangan tegishli xinazon, benzimidazol, benzoksazol va boshqa geterotsiklik birikmalarning fazoviy tuzilishini o'rganishga va kristallda molekulararo ta'sirlashuvlarni tahlil qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 11-sentyabrdagi 4/1255-2195-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu birikmalarni metallar bilan yangi komplekslarini kimyoviy tuzilishini to'liq isbotlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan (PhD) Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnal maqolalari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va muhimligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar chiqarilgan hamda chop ettirilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “ **Xinazolinlar: sintez, tuzilishi va biologik faolligi (adabiyotlar sharhi)** ” deb nomlangan birinchi bobida Xinazolinlarning olinishi va umumiy xossalari, Bisiklik xinazolinlar asosida organik tuzlar sintezi va ularning xossalari, Bisiklik xinazolinlar asosidagi kompleks birikmalarning rentgen tuzilishi tahlil, Termogravimetrik tahlil. Xinazolinlar sintezi va xossalari yoritib berilgan. Bob so‘ngida bob bo‘yicha umumiy xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining komplekslar sintez sharoitlari va uslublari(tajribaviy qism)**” deb nomlangan ikkinchi bobida dissertatsiya tadqiqoti doirasida foydalanilgan asboblari, qo‘llanilgan usullar tavsifi, kompleks birikmalarning sintez usullarini tanlashga yondashuv, Xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari asosida sintez qilindi.

Olingan natijalar 2,3-dialkil almashgan Xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari metal tuzlari bilan 1:1 mol nisbatda 96% li etanolning 10 ml hajmida. Alohida idishda Me(II) 1:1 mol nisbatda xlorid (CuCl<sub>2</sub>, MnCl<sub>2</sub>, CoCl<sub>2</sub>) ning suvdagi eritmasi (0,01 mol) tayyorlandi. Tayyorlangan MeCl<sub>2</sub> 2,3-alkil almashgan xinazolin-4-on hosilalarining etanol eritmasiga asta-sekin tomchilatib qo‘shildi. Har bir tomchi qo‘shilganidan keyin eritma muntazam aralashtirildi. Hosil bo‘lgan aralashma avtoklav idishiga solinib, 40-50°C haroratda 3–4 soat davomida reaksiya olib borildi.



**1-sxema. [MCl<sub>4</sub>(X-4-on)<sub>2</sub>] – dixlor,bi(xinazolin-4-on)M(II) komplekslarining sintez reaksiyasi.**

Reaksiya tugagach, avtoklav asta-sekin xona haroratiga sovitildi. Hosil bo‘lgan quyqasiman cho‘kma

filtrlash orqali ajratib olindi va 96% li etanolda qayta eritildi. Kristallanish jarayonini yaxshilash uchun eritmaga xinazolin-4-on moddasining oz miqdordagi kristallari kurtak sifatida qo‘shildi. Eritma xona haroratida 24-48 soat davomida qoldirildi. Natijada tiniq, rangli yirik monokristallar o‘stirildi.

Natija va kuzatishlar:


Hosil bo‘lgan monokristallar rentgen tuzilish tahlili (RTT) yordamida o‘rganilib, kompleks birikmaning tarkibi [MCl<sub>4</sub>·(X-4on)<sub>4,(2)</sub>] ekanligi aniqlandi.

Xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari hosilalari asosida nitrat va xlorid kislotalari bilan kompleks hosil qilishi quyidagi sharoitlarda amalga oshirildi. Sintez jarayonida xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarilar 0,001 mol miqdorda ishlatildi.

Xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining 0,001 moli, 96% li etanolning 10 ml hajmida eritildi. So‘ng, eritmaga 60% li nitrat yoki 15-30% xlorid kislotalari asta-sekin, 4-5 tomchi shaklida tomizib qo‘shildi. Hosil bo‘lgan aralashma 45°C haroratda, 30 kGs chastotali ultratovush yordamida 15-45 daqiqa davomida gomogen holga keltiriladi. Keyinchalik gomogen aralashma uch og‘izli kolbaga quyib, teskari sovutgich ostida, qaynash haroratida 1,5-4,5 soat davomida aralashtirib turildi. Ushbu sharoitda Xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-

alkil almashgan hosilalari va nitrat kislotasi o'zaro ta'sirlashib, Xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining oniylik ion-juft kompleksi hosil qildi (2-sxema.).

2-



**sxema. N-(geptil)xinazolin-4-oniy nitratning ion-juft kompleksi reaksiya sxemasi.**

Reaksiya tugagach, hosil bo'lgan rangsiz quyqasiman cho'kma sovutilib, filtr yordamida filtrlandi va 96% li etanolda qayta eritildi. Kristallanish jarayonini yaxshilash maqsadida eritmaga oz miqdorda tayyor ligandining kristallari kurtak sifatida qo'shildi.

Sintez qilingan kompleks birikmalarning monokristallari RTT usulida tekshirilganda ularning aksariyat qismi singoniyasi monoklinik, ortorombik, triklinik tuzilishga ega ekanligi aniqlandi.

**1-jadval.**


**Sintez qilingan kompleks birikmalarning kristallografik ma'lumotlari**

Kompleks	Mr	Singoniya si	Fazoviy gurubi	a, Å b, Å c, Å	α, grad. β, grad. γ, grad.	V, Å <sup>3</sup>	Z
[HCl · (2M - X - 4OH)]	197,5	M	Pbcm	10,1221(5) 13,6533(4) 6,6248(3)	90 90 90	915.55(7)	4
[HNO <sub>3</sub> · (3 - N, X - 4on)]	323,38	M	I2/a	22,6755(12) 5,19010(17) 30,920(2)	90 101.099(6)	3750	2
[HNO <sub>3</sub> · (3 - Gep - X - 4on)]	295,33	M	I2/a	12,416(2) 6,1793(8) 30,335(3)	90 101.804(10) 90	3447.4(7)	15
[HNO <sub>3</sub> · (3 - O, X - 4OH)]	309,35	M	C2/c	31,718(2) 5,1682(2) 22,7132(13)	90 99.274(6) 90	3274.6(4)	2
[HNO <sub>3</sub> · (2,3-DMX)]	237,21	O	Pna2 <sub>1</sub>	20,8130(5) 5,8399(1) 19,7970(5)	90 90 90	2406.24(9)	8
[HNO <sub>3</sub> · X - 4 - on]	209,15	M	P21/c	5,2445(2) 10,7546(3) 16,3871(5)	89.989(2) 95.649(3) 90.005(3)	919.79(5)	4
[2M - X - 4OH · (H <sub>2</sub> O) <sub>n</sub> ]	179,19	Tri	P-1	7,2162(8) 12,54224(9) 39,334(3)	92.118(6) 90.433(7) 101.945(7)	3474.7(5)	15
[CuCl <sub>4</sub> · (X-4on) <sub>2</sub> ]	280,59	Tri	P-1	7,25577(14) 7,73292(18) 9,38320(16)	87.5133(16) 81.6544(15) 63.916(2)	467.725(19)	2
[MnCl <sub>4</sub> · (X - 4on) <sub>2</sub> ]	370,46	Tri	P-1	8,3847(14) 6,78452(1) 10,4589(16)	87.5133(16) 81.6544(15) 63.916(2)	467.725(19)	
[CoC <sub>4</sub> · (2,3DMX-4on) <sub>2</sub> ]	304,03	M	C2/c	17,3244(4) 9,6490(2) 15,8346(4)	90 114.472(3) 90	2409.17(12)	10

Ya'ni kristall yacheykadagi kompleks birikmalarning a,b va c o'qi bo'yicha ba'zi cheklanishlar mavjud bo'lib bu birikmaning turli singoniyani namoyon qilishini bildiradi, ammo a va b hamda b va c burchaklari turlicha ekanligi aniqlanib tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning “**xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining olingan komplekslar tuzilishi(natijalar muhokamasi)**” deb nomlangan uchinchi bobida xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalarining, 1 ta Co(II) bilan 1 ta, Cu(II) bilan, 1 ta Mn(II) bilan, 3 ta HCl bilan, 5 ta HNO<sub>3</sub> organik tuz holatdagi kompleks birikmalari hamda 1 ta gidratlangan holatdagi kompleks birikmalarining RTT tahlili, TG tahlili qilingan. Tahlillar asosida sintez qilingan komplekslarning strukturalari isbotlandi va sintez qilingan yangi kompleks birikmalarning termik va suyuqlanish haroratlari keltrilgan.

[Cu(NLH)<sub>2</sub>Cl<sub>4</sub>], [MnCl<sub>4</sub>·(2,3dM-X-4on)<sub>2</sub>], [CoCl<sub>4</sub>·(2,3M-X-4on)<sub>2</sub>] tarkibli kompleks birikmalarning molekulyar va kristall tuzilishlari RTT usuli yordamida aniqlandi, tahlil qilindi hamda taqqoslandi. Kompleks birikmalar neytral va simmetrik tuzilishga ega. Inersiya markazida metall atomi (Cu, Co va Mn) joylashgan va unga 4 ta xlor oniy kordinatsiyalangan, xlor anyonlariga vodorod bog'lar orqali 4ta pratonlangan ligand molekulasiga birikadi. Sintez qilingan izostrukturali kompleks birikmalarning singoniyasi monoklinik va fazoviy guruhi C2/c, P-1. (1-rasm).




**1-rasm. Kompleks birikmalarning molekulyar tuzilishi [Cu(NLH)<sub>2</sub>Cl<sub>4</sub>] (a), [MnCl<sub>4</sub>·(2,3dM-X-4on)<sub>2</sub>] (b) va [CoCl<sub>4</sub>·(2,3M-X-4on)<sub>2</sub>] (c).**

Molekulalarda MCl<sub>4</sub> donor-akseptor bog'lari va H···Cl vodorod bog'lari mavjud. Ularning fazoviy tuzilishi tetraedr shaklni hosil qiladi. Ushbu kompleks birikmalarda metall atomlari koordinatsion soni barqaror holatda 4 ga teng. Olingan kompleks birikmalar tarkibida markaziy atomga bog'langan M1-Cl···H, bog'larining bog' uzunliklarining Cu(II)<Mn(II)<Co(II) tartibida uzayganligini kuzatishimiz mumkin. Bu jarayonni markaziy atomning radiusi va elektron tuzilishi orqali tushuntirish mumkin

Olingan [HCl·(2<sub>M</sub>-X-4on)], [HNO<sub>3</sub>·(3-N,X-4on)], [HNO<sub>3</sub>·(3-N,X-4on)], [HNO<sub>3</sub>·(3-Gep-X-4on)], [HHO<sub>3</sub>·(3-O,X-4on)], [2<sub>M</sub>-X-4on ·(H<sub>2</sub>O)<sub>n</sub>], [HCl·(2-Pen-X-4on)], i) [HNO<sub>3</sub>·(2,3-DMX)], o) [HCl·(2,3-DMX)] tarkibli kompleks birikmalar, xinazolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilalari kislotalar bilan tuz shaklida bog'langan bo'lib, proton kislotalar molekulasidan xinazolin halqasidagi

1-holatdagi azot atomiga o'tadi. Natijada xinzoliniy kationi va mos ravishda xlorid yoki nitrat anioni hosil bo'ladi. Tuz tuzilmasida anionlar va kationlar o'rtasida N–H···O (nitrat holatida) yoki N–H···Cl (xlorid holatida) turidagi vodorod bog'lari mavjud. Bu bog'lanishlar kristall tuzilmaning barqarorligini ta'minlab, birikmalarning termik va fizik-kimyoviy xossalriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (2-rasm.).




## 2-rasm. Sintez qilingan kompleks birikmalarning molekulyar tuzilishi.

- a)  $[HCl \cdot (2M-X-4OH)]$ , b)  $[HNO_3 \cdot (3-N,X-4on)]$ , c)  $[HNO_3 \cdot (3-N,X-4on)]$ ,  
d)  $[HNO_3 \cdot (3-Gep-X-4on)]$ , e)  $[HNO_3 \cdot (3-O,X-4OH)]$ , g)  $[2M-X-4OH \cdot (X_2O)_n]$ ,  
h)  $[HCl \cdot (2-Pen-X-4on)]$ , i)  $[HNO_3 \cdot (2,3-DMX)]$ , o)  $[HCl \cdot (2,3-DMX)]$

Yuqoridagi 2-e rasmda  $[HNO_3 \cdot (3-o,X-4on)]$  birikmaning kristall tuzilishi monoklinik tizimga mansub bo'lib, fazoviy guruhi I2/a. Elementar yacheyka parametrlari:  $a=30,359 \text{ \AA}$ ,  $b=5,1778 \text{ \AA}$ ,  $c=22,4124 \text{ \AA}$ ,  $\beta=101,896^\circ$ , hajmi  $3447,4 \text{ \AA}^3$ , zichligi  $1,238 \text{ g/sm}^3$ . Tuzilmada kuchli N–H···O va zaif C–H···O vodorod bog'lari aniqlangan bo'lib, ular struktura barqarorligini ta'minlaydi. N–H···O bog'lari to'g'ri chiziqli va kuchli, C–H···O bog'lari egilgan va zaif. Kristall panjara ichidagi vodorod


bog‘lari hamda  $\pi-\pi$  o‘zaro ta’sirlar ( $Cg1 \rightarrow Cg1$ ,  $Cg3 \rightarrow Cg1$ ) struktura barqarorligini oshiradi.



**3-rasm. e)  $[HNO_3 \cdot (3-O, X-4on)]$  birikma kristall tuzilishining assimetrik qismi va  $Cg \cdots Cg$  halqa bog‘lanishning o‘zaro ta’sirlari.**

$[CuCl_4(X-4-on)_2]$  kompleksning kristall yacheykada molekulararo ta’sirlar xarakterini tavsiflash uchun Hirshfeld sirt tahlili Crystal Explorer 21.5 dasturi yordamida amalga oshirildi. Hirshfeld sirt tahlili orqali kristall yacheykadagi bitta molekulaning boshqa molekular bilan ta’sirlashish yuzasini, hajmini, masofalarini va dasturda yuklangan qo‘shimcha funksiyalardan foydalanib ko‘plab ma’lumotlarni aniqlash mumkin.

Olingan kompleks birikmalar kristalldagi qadoqlashning shakllanishida individual o‘zaro ta’sirlarning hissasini ko‘rsatuvchi  $d_e$  va  $d_i$  funksiyalari yordamida olingan ikki o‘lchamli barmoq izlari sohasi chizmalarining tahlili natijasiga ko‘ra ta’sirlashishlarning asosiy qismini  $H \cdots H$  hamda  $H \cdots O/O \cdots H$  ta’sirlar eng ko‘p hissa qo‘shishi aniqlandi




**4-rasm.  $[CuCl_4(X-4-on)_2]$  birikmaning uch o‘lchamli Hirshfeld sirt xaritasi  $d_{norm}$  bilan tasvirlangan.**

Molekulararo o‘zaro ta’sirlar xarakterini tavsiflash uchun Hirshfeld sirti tahlili qilindi. Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Rentgen tuzilish tahlili natijalariga ko‘ra, xinzolon-4-on  $CuCl_2$  kompleksi,  $(C_8H_7N_2O)_2^+CuCl_4^-$  empirik formulaga ega ekanligi aniqlandi. Birikmada  $N-H \cdots Cl$  vodorod bog‘lari va  $C-H \cdots Cl$  bog‘lari hosil bo‘lishi tasdiqlandi.

Shuningdek, molekulada  $C-O \cdots Cg$  halqa bog‘lari mavjudligi ochib berildi. Hirshfeld sirt tahlili asosida  $H \cdots Cl/Cl \cdots H$ ,  $H \cdots O/O \cdots H$ ,  $H \cdots H$ ,  $H \cdots C/C \cdots H$  va  $C \cdots C$  o‘zaro ta’sirlari tahlil qilindi. Yakuniy xulosa sifatida molekuladagi vodorod ishtrokidagi bog‘lanishlar asosiy kristallning o‘sish yo‘nalishini belgilab berdi.

TG va DTT (termogravimetrik tahlil) usulida olib borilgan termik tahlil  $[HNO_3 \cdot (3-P, X-4on)]$  kompleks birikmaning yuqori barqarorligini ko‘rsatdi;  $[HNO_3 \cdot (3-P, X-4on)]$  birikmada termik barqarorlik  $294^\circ C$  gacha saqlan.



**5-rasm.  $[\text{CuCl}_2(\text{X-4-on})_2]$  an birikma uchun ikki o‘lchamli barmoq izi grafigi, (a) barcha o‘zaro ta’sirlarni, (b)  $\text{H} \cdots \text{Cl}/\text{Cl} \cdots \text{H}$ , (c)  $\text{H} \cdots \text{O}/\text{O} \cdots \text{H}$ , (d)  $\text{H} \cdots \text{H}$ , (e)  $\text{H} \cdots \text{C}/\text{C} \cdots \text{H}$ , (g)  $\text{C} \cdots \text{C}$  o‘zaro ta’sirlarini ko‘rsatadi.  $d_i$  va  $d_e$  qiymatlari Hirshfeld sirtining ichki va tashqi eng yaqin masofalarini (Å da) ifodalaydi.**


Termogravimetrik tahlil natijalariga ko‘ra moddaning parchalanishi uch bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqich 18,44–60,38 °C harorat oralig‘ida sodir bo‘lib, kichik massa yo‘qotilishi kuzatiladi va bu jarayon namlik hamda uchuvchi komponentlarning bug‘lanishi bilan izohlanadi. Ikkinchi bosqich 60,38–186,27 °C oralig‘ida kechib, asosiy endotermik effekt bilan birga moddaning suyuqlanishi va intensiv parchalanishi sodir bo‘ladi. Ushbu bosqichda eng katta massa yo‘qotilishi qayd etilgan.

**2-jadval**

**$[\text{HNO}_3 \cdot (3\text{-P,X-4on})]$  tarkibli kompleksning TGA va DTA egri chizig‘i natijalari tahlili**

Bosqich	Harorat intervali (°C)	Effekt cho‘qqisi (°C)	Effekt tabiati	Kuzatilgan jarayon	Massa yo‘qotilishi (mg)	Massa yo‘qotilishi (%)
I	18.44 – 60.38	60.38	Endotermik	Namlik va uchuvchi qism bug‘lanishi	0.0319	1.648
II	60.38 – 186.27	186.27	Endotermik	Kompleksning suyuqlanishi	1.582	103.74
III	294.42 – 601.65	—	Endotermik (keng soha)	Organik qoldiqlarning asta-sekin destruksiyasi	0.086	5.639

Uchinchi bosqich 294,42–601,65 °C harorat oralig‘ida davom etib, organik qoldiqlarning asta-sekin destruksiyasi bilan tavsiflanadi. Umuman olganda, modda taxminan 60 °C gacha termik barqaror bo‘lib, undan yuqori haroratlarda murakkab va ko‘p bosqichli parchalanish jarayonlari kuzatiladi.



**6-rasm. [HNO<sub>3</sub>·(3-P,X-4on)] ririkmaning TGT, DTT tahlil**

3300–3100  $\text{cm}^{-1}$  oralig‘ida aromatik C–H va N–H tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlari kuzatildi.

3050  $\text{cm}^{-1}$  atrofida aromatik halqaga xos bo‘lgan C–H tebranishlari, 2950–2850  $\text{cm}^{-1}$  sohalarda esa alifatik C–H guruhlarining yutilish chiziqlari qayd etildi. 1650–1500  $\text{cm}^{-1}$  oralig‘ida kuchli yutilishlar xinozalin halqasidagi C=N va C=C tebranishlariga mos keladi. Shuningdek, 1350–1200  $\text{cm}^{-1}$  sohalarda C–N bog‘lariga xos tebranishlar, 1000–700  $\text{cm}^{-1}$  oralig‘ida esa aromatik halqaning tekislikdan tashqari C–H tebranishlari aniqlandi.

Sintez qilingan kompleksning IQ-spektrida ligandga xos yutilish chiziqlarida sezilarli siljishlar va intensivlikning o‘zgarishi kuzatildi (3.9.7-rasm). Xususan, C=N va N–H tebranishlariga tegishli chiziqlarning past chastotalarga siljishi xinozalin halqasidagi azot atomlarining mis(I) ioni bilan koordinatsiyaga kirishganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, 600–500  $\text{cm}^{-1}$  past chastota sohasida faqat kompleks spektrida paydo bo‘lgan yangi yutilish chiziqlari Cu–N bog‘lariga xos bo‘lib, ligandning metall ioniga koordinatsion birikkanini tasdiqlaydi.

**3-jadval**


**Ligand X-4on va [CuCl<sub>4</sub>(X-4on)<sub>2</sub>] tarkibli kompleksning IQ-spektrlari tahlili,  $\text{cm}^{-1}$**

Tebranish tavsifi	$\nu(\text{NH}, \text{NH}_2)$	$\nu(\text{Ar})=\text{C}-\text{H}$	$\nu(\text{Ar}) \text{C}=\text{C}, \text{C}=\text{N}$	$\nu(\text{CH}_3, \text{CH}_2) / \delta(\text{CH}, \text{CH}_3)$
xinozalin)	3300–3100	~3050	1650–1500	2950–2850
[Cu(NLH) <sub>2</sub> Cl <sub>2</sub> ]	3250–3080	3035	1620–1480	2950–2850

Ushbu solishtirishlar shuni ko‘rsatadiki, kompleks birikma hosil bo‘lishi jarayonida metall markaz va ligand o‘rtasida koordinatsion bog‘ shakllanishi IQ spektrida xos tebranish chastotalarining siljishiga olib kelgan. Xususan, ligand tarkibidagi funksional guruhlariga (masalan, C=O, C=N yoki N–H) tegishli yutilish cho‘qqilarining past yoki yuqori to‘lqin sonlari tomon siljishi metall–ligand o‘zaro ta‘sirining mavjudligini tasdiqlaydi.

**Ligand xinozolin-4-on va uning 2(H,CH<sub>3</sub>)-3-alkil almashgan hosilarihamda sintez qilingan kompleks birikmaning IQ-spektr tahlili.**

